

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

OLIY TA'LIM MUASSASASIDA TA'SVIRIY SAN'AT FANIDA QALAMTASVIRNING O'RNI VA AHAMIYATI

Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi

e-mail: rizayevaqomarun0@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrasи “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, oliy ta’lim tizimini xususan, tasviriy san’at ta’lim tizimini modernizatsiyalash, ta’sviriy san’at fanida qalamtasvirning ahamiyati haqida ta’kidlangan*

Kalit so‘zlar: *modernizatsiyalash, rangtasvir, grafika, kreativlik, kompozitsiya*

Annotation: *this article comments on the development of professional competence of teachers, arming them with modern professional knowledge, skills and skills related to the field. It is also noted about the modernization of the higher education system, in particular, the system of Fine Arts Education, the importance of pencil painting in the subject of founding art*

Keywords: *modernization, painting, graphics, creativity, composition*

Аннотация: *В данной статье высказываются мысли о развитии профессиональной компетентности педагогов, вооружении их современными профессиональными знаниями, умениями и навыками, относящимися к данной области. Также была отмечена модернизация системы высшего образования, в частности, системы образования в области изобразительного искусства, важность пера в науке о изобразительном искусстве*

Ключевые слова: *moderнизация, живопись, графика, креативность, композиция*

Ma'lumki, ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-o'qituvchi bo`ladigan mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko`nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik interfaol metodlardan, innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko`nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Quyidagi fikrlardan ko`rinib turibdiki oliy ta'lim tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern — yangilangan, zamonaviy, tekor o'sish) o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion va interaktiv yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'limga innovatsion (inglizcha innovation — yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo`nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, usul va vositalarini fan va texnikaning so`nggi yutuqlari, ilg`or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg`unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farqlanadi.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va interfaol metodik ta'minotning mavjudligini maqsad qiladi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg`or pedagogik tajribalarni o'rghanish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo`nalishlardan sanaladi. Bu esa o`z navbatida tasviriy san'at mashg`ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtualtexnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruzakonferentsiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o`qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at o'quv jarayoniga, xususan Dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya darslariga innovatsiyalarni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tatbiq etishda interfaol metodlarning ahamiyati ham o`ziga xos hisoblanadi. Interfaol - so`zi inglizcha so`z bo`lib, «inter» - o`zaro va «act» - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o`zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Bunday o`zaro harakat turlariga “o'quvchi - o`qituvchi” va “talaba”ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o`qitishda o`qituvchi o`quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo`lib, o`quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo`ladi. Interfaol o`qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo`lib, interfaol o`qitish jarayonida ta'lim oluvchi o`qitishning ob'ektidan o`zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o`quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Oliy talim muasasasida tasviriy sanat fanida qalam tasvirning o'rni va ahamiyati juda katta. Qalamtasvir, yoki grafika, san'atining asosiy shakli hisoblanadi va uni o'rganish talabalarga tasviriy san'atning asosiy tamoyillarini, texnika va uslublarini tushunishga yordam beradi. Qalamtasvirning oliy talim muasasasida ahamiyati quyidagi sabablar bilan katta:

1. Kreativlik va ifoda qobiliyati: Qalamtasvir talabalarga o'z fikrlarini va hissiyotlarini ifoda qilish uchun keng imkoniyatlar beradi. Bu san'at shakli, talabalarga o'z o'ylarini vizual ravishda ifodalash uchun ilg'or usuldir.
2. Tahlil qobiliyati: Qalamtasvir, talabalarga obrazlarni tahlil qilish va ulardan tushunishga yordam beradi. Ular obrazlarni tahlil qilish, ulardan tushunish va ularni interpretatsiya qilish orqali o'z fikrlarini ifodalashga yordam beradi.
3. Texnikalar va uslublar: Qalamtasvirning o'rganish jarayonida talabalar texnikalar va uslublar haqida tushunishga ega bo'ladi. Ular qalam, pastel, akvarel va boshqa materiallarni qanday ishlatishtirish va ulardan foydalanishni o'rganish orqali o'z rasm san'atlarini rivojlantirishlari mumkin.
4. Tarixiy ma'nosi: Qalamtasvir tarixiy ravishda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu san'at shakli tarixda katta rol o'ynagan va talabalar bu tarixni o'rganib, ularning o'z rasm san'atlarini rivojlantirishiga yordam beradi.
5. Konsentratsiya va sabr: Qalamtasvir talabalarga konsentratsiya va sabrni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlantirishga yordam beradi. Ular uzun muddat davomida biror obrazni tahlil qilish va uning detallariga e'tibor qaratish orqali sabr va konsentratsiya rivojlantirishadi.

Bular qalamtasvirning oliy ta'lim muasasasida ahamiyatini ko'rsatadigan ba'zi sabablar. Bu san'at shakli talabalarga kreativlik, tahlil qobiliyati, texnikalar va uslublar, tarixiy ma'nosi, konsentratsiya va sabrni rivojlantirishda yordam beradi.

REFERENCES

1. J. O. Tolipova. "Pedagogik kvalimetriya". T.: 2015.
2. M.Mirsolieva., G.Ibragimova - Ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat. T.: 2015
3. S.Abdirasilov., N.Tolipov - Dastgohli rangtasvir. "Iqtisod-moliya" T.: 2010
4. R.Xasanov, Tasviriy san'at asoslari - T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi - 2009.